

ADABIYOTLAR:

- 1.Dubrovina, I.V. Psixologiya / I.V. Dubrovina, E.E. Danilova, A.M. Parishionerlar.
- M.: "Akademiya", 2001 yil
- 2.Shadrikov, V.D. Qobiliyatlarning rivojlanishi // Boshlang'ich maktab. -№5, 2004 yil.
- 3.Davydov, V.V. Ta'limni rivojlantirish muammolari / V.V. Davydov. - M., 2016 yil.

MORFOLOGIYA BO'LIMINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Turayeva Nafisa Xusanovna

Samarqand viloyati Narpay tumani

42-umumta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada til bo'limlarining o'qitilishida innovatsion usullardan foydalanishning asosiy tamoyillari haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, interfaol, metod, usul, morfologiya

Ta'lim sohasida dars samaradorligini oshirish o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga bog'liq. Hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi islohotlar ta'limning sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarilishini talab etmoqda. Ona tilini o'quvchi nutqidagi ahamiyati beqiyos ekan, demak, uni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish ham muhimdir. Hayotimizda sodir bo'layotgan buyuk o'zgarishlar, qudratli islohotlar jarayoni, uzlusiz ta'lim tizimidagi innovatsiyalarning shiddatli ravishda jadallahushi nutq o'stirish, keng mushohada qilish qobiliyatini shakllantirish muammolarini vujudga keltirmoqda.

O'qituvchi ona tili mashg'ulotlarini shunday tashkil etmog'i lozimki, dars jarayonida bajariladigan topshiriqlarning 35-40 foizini yozma topshiriqlar, qolgan qismini og'zaki harakterdagi topshiriqlar tashkil etmog'i lozimi. O'quvchilar muayyan bir mavzuni turli shakllarda bera bilish, o'z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko'nikmalarini egallash orqali ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak. Demak, eshitish, anglash, mulohaza yuritish, kuzatish, izlanish, sharhlash, qiyoslash, umumiylilik va farqlarni aniqlash, hukm (xulosa) chiqarish, aloqadorlikni aniqlash, nutqda qo'llash kabi eng muhim metodik usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish juda muhimdir. Bu o'rinda ta'lim-tarbiya jarayonida yangi interfaol metodlar, samaraliusullarni qo'llanishi o'rinni bo'ladi. O'qituvchi dars jarayoniga tayyorgarlik davomida har bir darsiga qanday interfaol metodlarni qo'llashni rejalashtiradi. O'qituvchi interfaol metodlardan, avvalo, oddiydan murakkabiga o'tish nazaryasiga amal qilgan holda foydalanmog'i lozim.

Umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanining (6-sinf) morfologiya bo'limini o'quvchilarda o'rgatishda interfaol usullardan mohirlik bilan foydalanish ancha samara beradi. O'quvchilar so'zning grammatik ma'nosi, qo'shimchlarni va uning turlari, so'z turkumlari va ularning ma'noviy guruhlari haqida ma'lumotlarga ega

bo'lishadi. Nutqimizdagi so'zlar bir xil shaklda emas. Nutq talabi bilan ular turli qo'shimchlarni qabul qiladi, o'zgaradi, turfa ma'nolarni ifodalash uchun xoslanadi.

Leksikologiya bilan morfologiya o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Har ikkisida so'z o'rganiladi. Ular so'zning qaysi tomoni o'rganishi bilan farqlanadi. Leksikologiya so'zning atash ma'nosini, morfologiya esa uning grammatik ma'nosini va bu ma'nolar ifodalovchi

vositalarni o'rganadi. Shunga asoslanib, darsni quydagi bosqichlarda olib borish mumkin: Chaqiriq – bu bosqich davomida o'quvchilardan mavzu xususida ularning fikrlarni jamlash, o'z bilimlarini nazorat qilish, mavzu bo'yicha savollar berish va o'rgatish vazifalari qo'yiladi. An'anaviy dars tuzilishidagi —uy vazifani so'rab baholash bosqichiga to'g'ri keladi. Darsda o'tilgan mavzu bo'yicha savollar berilishi yoki —Klassterdan foydalanish mumkin. Anglash – ma'noni anglash bu bosqich davomida o'quvchilar olgan bilimlari va ko'nikmalari asosida yangilikni tadqiq etadilar, yangi bilimlarni izlaydilar hamda o'z faoliyatlari natijasida biror ma'noni anglaydilar. An'anaviy dars tuzilishidagi —yangi mavzu bayoni qismiga to'g'ri keladi. Fikrlash – bu bosqich davomida o'quvchilar o'zlari uchratgan fikrlarga va o'zlari o'zlashtirgan bilimlarga qaytadilar hamda savollar beradilar, talqin etadilar, qo'llaydilar, munozara yuritadilar. An'anaviy dars tuzilishidagi—mustahkamlash qismiga tog'ri keladi. Chaqiriq bosqichida o'qituvchi —Zanjir usulidan foydalanishi mumkin. Bu usul darslarda qo'llanganda o'quvchilarning hozirjavobligini shakllantiriladi. Bunda o'qituvchining o'z bilimini tezkorlik bilan namoyon etishi talab qilinadi. Shuni ta'kidlash o'rinniki, eng yaxshi javoblar vaqt tig'iz bo'lganda tug'iladi. Masalan: —So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari mavzusi bo'yicha o'qituvchi birorta misol (qo'shma so'z: gulqaychi) ketiradi.

O'quvchilar qo'shma so'zlar zahirini davom ettiradi. O'z misollarini navbatma navbat qisqa vaqtda aytadilar va zanjirni bog'laydilar. Shartga amal qilmagan va qo'shma so'zni takror aytgan o'quvchi zanjirni uzgan bo'ladi va u jarima oladi. Jarima olgan o'quvchi o'yin so'ngida o'qituvchining qo'shimcha savoliga javob beradi. —Zanjir usulini guruhlararo o'tkazish ham samarali natija beradi. Shartlarning bajarilishiga qarab ballar qo'yib boriladi va g'oliblar belgilanadi. Yuqorida keltirilgan noan'anaviy usullarning samara berishi o'qituvchining bilim darajasiga, usullarni qo'llay olish san'atiga, o'quvchilar bilan ishlash mahoratiga bog'liq. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni darsda qo'llash uchun o'qituvchi, pedagog xodim izlanuvchi, yaratuvchi, o'z kasbini sevuvchi, o'z faniga doir so'nggi yangiliklardan xabardor bo'mog'i, zamon bilan hamnafas, eng yanggi ma'lumotlar bilan qurollangan, o'ziga bo'lgan yuqori ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston. 2017.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2012.
3. Jumaniyozova M., Ishmuhammedov R. Ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent: Iste'dod, 2012.
4. Mirqosimova M. Badiiy tahlil usullari (metodik tavsiyalar). –T.: —Muallif. 2013

**TEXNOLOGIYA FANI DARSLARINING O'QUVCHILARGA KASBLARGA OID
MA'LUMOTLARNI BERISHDAGI AHAMIYATI**

Quziyev Gaybulla Xudayorovich

Samarqand viloyati Narpay tumani

42- umumta'lism maktabi

Texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lism maktablarida Texnologiya fani darslarinig o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashdagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Texnologiya darslarinig kasb tanlashga yo'llash ishlariidagi imkoniyatlari haqida bayon qilingan. Texnologiya o'quv predmeti darslarida o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish samaradorligini oshirish uchun qilinishi lozim bo'lgan tashkiliy va uslubiy ishlar bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zları: Kasb, texnologiya, xalq hunarmandchiligi, soha, ishlab chiqarish, faoliyat.

Insonning kasbiy shakllanishi va mutaxassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsining taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mataxassisining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir. Kasb tanlash inson uchun muhim muammolardan biridir. Tanlov doirasi qanchalik keng bo'lsa, u shunchalik psixologik jihatdan murakkablashib boradi. Shaxsning sub'ektiv moyilliklari va u yoki bu faoliyatga qobiliyatligi bir butunlikni tashkil etadi. Qiziqish va moyillik faoliyat jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Kasb tanlash arafasida turgan inson shaxsining mazkur sohadagi qanchalik mos ekanligi faqatgina ushbu faoliyat jarayonidagina aniqlanadi.

Kasblarga xos faoliyat turlari bilan yaqindan tanishish uchun Texnologiya o'quv predmeti masg'ulotlarida juda katta imkoniyatbor. Umumiyl ta'lism maktablarida texnologiya fani asosida o'rganilishi muhim va zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlar, amaliy ko'nikma va malakalar, jarayonlar yotadi.

Umumiyl ta'lism maktablarida tashkil etiladigan texnologiya mashg'ulotlari ushbu ta'limni amalga oshirishda, o'quvchilarning umumtexnologiya, mehnat, maxsus bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda etakchi o'rinn egallaydi. Texnologiya o'quv predmeti mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra ko'pgina ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uyg'unlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tadbiq etishni ko'zda tutadi. SHu jihatdan olib qaraganda texnologiya maktab tizimi umumta'lism fanlaridan o'rganiladigan nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'laydigan quvvatli didaktik vositadir.

Demakki, kasb tanlashga yo'llashda ham katta axamiyatga egadir. Maktablarda texnologiya ta'limining maqsad va vazifalari: Boshlang'ich mакtabda (I-IV - sinflar) o'quvchilarni texnologiya va hunarmandchilik dunyosi, o'simliklarni parvarish qilish, turli materiallar bilan tanishtirish, oddiy ishlov berish, oddiy texnologiya va hunarmandchilik asboblari va texnologiya, ish-harakat usullari to'g'risida sodda tasavvurlar hosil qilishni ko'zda tutadi. Bu davrda o'quvchilar texnologiya ta'limidan o'zlashtirgan bilimlar ko'lamini o'zlarining hayotiy tajribalarida va oiladagi texnologiya jarayonida mustahkamlaydilar va kengaytirib boradilar.

Tayanch maktablarda (V-IX – sinflar) da o'quvchilar umumtexnologiya ko'nikma va malakalarini shaklantiriladi, qiziqish va moyilliklariga ko'ra, o'z-o'zini kasbiy jihatdan aniqlashlari, kasb-hunar turlarini tanlashlarini ta'minlanadi, qiziqish va moyilliklari rivojlantiriladi, umumtexnologiya madaniyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi, xalq xo'jaligi va hunarmandchilikning sohalari, ularda ishlataladigan asbob-uskunalar, texnika va texnologiya bilan tanishtiriladi, texnologiya faoliyatining turli qirralarida ishtirok etishlari ta'minlanadi.

Yuqori sinflarda texnologiya ta'limi va kasblarga yo'naltirish kursi-ishchi va mutaxassislarning amaliyotida qo'llanadigan turli xil qo'l asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalarini o'rgatishni, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologiya qonunchiligi xavfsizligi, sanitariya-gigiena qoidalari va yo'l-yo'riqlari asoslarini o'rgatishni ta'minlaydi. SHuningdek, bu davrda o'quvchilarda xalq xo'jaligining va hunarmandchilikning asosiy sohalari bo'yicha maxsus kursslarni o'qitishni tashkil etib, turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu kurslarda o'quvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtira borib, tanlagan kasblari bo'yicha tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli texnologiya jarayonida qatnashish imkoniyatiga va huquqiga ega bo'ladilar.

Texnologiya ta'limining yuqorida ko'rsatilgan maqsadiga erishishi uchun quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

-turli sohalardagi ishlab chiqarish mazmuniga ega vazifalarni echish, tajribalar o'tkazish, o'lchov-tekshiruv asboblaridan, ma'lumotlardan foydalana olish, texnologiya operatsiyalarini bajarish, olingan natijalarni talab etilgani bilan taqqoslash yo'li bilan xulosa chiqarishga o'rgatish;

-o'quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnat ahillariga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat, do'stlik, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash;

-o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatları talablari asosida sifatli, xaridorgir iste'mol mollari, texnologiya mahsulotlari etishtirishga odatlantirish, o'zlar etishtirgan mahsulotlarni o'zlar iste'molchiga etkazishlariga o'rgatish, ish boshqaruvchilik (menedjerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini singdirib borish va rivojlantirish.

-texnologiya ta'limini o'rganish jarayonida o'quvchilarga, xalqimiz ruhiyatini yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi